



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
iqtisodiy bilim asoslari fani  
o'qituvchisi

\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 8-sinflar uchun  
iqtisodiy bilim asoslari fanidan

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 8-sinflar uchun \_\_\_\_\_ fanidan taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Kirish. Iqtisodiyot bilan tanishuv. Cheklanganlik muammosi.	1		
2.	Tanlov va uning muqobil qiymati Ishlab chiqarish va uning omillari	1		
3.	Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv	1		
4.	Iqtisodiy tizimlar	1		
5.	Takrorlash. /Ayirboshlash va pul.	1		
6.	Bozor qatnashchilari./ Iste’molchilarning daromadlari va xarajat turlari.	1		
7.	Mulk va xususiylashtirish. / Daromad va boylik.	1		
8.	Jamg‘arish va sug‘urta. <b>Nazorat ishi-1</b>	1		
9.	Iqtisodiy qaror qabul qilish.	1		
10.	Talab va talab qonuni. /Talabga ta’sir etuvchi boshqa omillar.	1		
11.	Taklif va taklif qonuni./ Taklifga ta’sir etuvchi boshqa omillar.	1		
12.	Tovarning bozor narxi./Talab va taklif qonunlariga doir amaliy mashg‘ulot.	1		
13.	Talab va taklif o‘zgarishining bozor narxiga ta’siri. /Takrorlash	1		
14.	Raqobat./ Monopoliya va monopollashgan bozorlar.	1		
15.	Bozor iqtisodiyoti. /O‘zbekiston bozor iqtisodiyoti sari.	1		
16.	Soliqlar va ularning turlari. /Soliqqa tortish asoslari			
17.	Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari. <b>Nazorat ishi-2</b>	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Iqtisodiyot bilan tanishuv.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, iqtisodiy tafakkurni o'stirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O'zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo'lib voyaga yetkazish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Kommunikativ kompetensiya:**

- o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;
- jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish;
- iqtisodiy bilim asoslariga oid umum tomonidan qabul qilingan iqtisodiy atamalar mazmunini bilish;
- iqtisodiy ta'limga oid formulalarni tushuntira olish.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

- mavjud axborot manbalaridan iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni topa olish;
- statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy grafiklar, diagrammalar, jadvallar, chizmalarni tayyorlay olish;
- tovarning shtirx kodini o'qiy olish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interfaol.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

**Texnik jihozlar:** proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

**Darsning metodi:** og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

### III. Yangi mavzu bayoni:

Biz muttasil o'zgarib, rivojlanib borayotgan olamda yashamoqdamiz. Atrofga sinchiklab nazar solsangiz, yangi tovarlar va xizmat turlarining paydo bo'layotganligi, odamlarning istak va xohishlari o'zgarib borayotganligi, ko'chalar, shahar va qishloqlarning yangicha ko'rinish olayotganligining guvohi bo'lasiz. Ushbu yangilanib borayotgan olamda yashar ekansiz, siz ham har bir o'zgarishga o'zingizning munosabatingizni bildirishingiz, yangi sharoitga moslashib borishingiz zarur bo'ladi. Iqtisodiyot jamiyat hayoti sohalaridan eng o'zgaruvchanidir. Chunki odamlarning yaxshi yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni har kuni yaratib borish zarur. Tabiatda tayyor holda non, kiyim-kechak, uy-joy yo'q. Inson ehtiyoji uchun kerakli, tabiatda tayyor holda uchramaydigan barcha narsalarni o'zi yaratishga majbur. U shu maqsadda tabiat qo'ynida iqtisodiyotdeb atalmish ulkan xo'jalikni barpo etdi. Endilikda iqtisodiyot xo'jalik yuritish tizimi sifatida — insonning yashashi va kamol topishining birdan bir vositasiga aylangan. Iqtisodiyotning eng asosiy tarkibiy qis mi — odamlardir. Odam o'z mehnati, aql-idroki evaziga iqtisodiyotni harakatga keltiradi, boshqaradi. Iqtisodiyotning ikkinchi tarkibiy qismi — tabiatdir. Tabiat iqtisodiyotning xom ashyo ombori hisoblanadi. Iqtisodiyotning uchinchi bo'lagi — bino va inshootlar, zavod va fabrikalar, yo'l va ko'priklar, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar hamda boshqa qator inson qo'li bilan yaratilgan narsalardan tarkib topgan sun'iy muhitdir.

Iqtisodiyot— odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan har xil ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan faoliyatlar tizimidir. Iqtisodiyotning shu uch tarkibiy qismlarining birikishi natijasida iqtisodiy jarayon vujudga keladi. Iqtisodiy jarayonlar to'rt bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda, inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan ne'matlar, ya'ni tovar va xizmatlar yaratiladi, ishlab chiqariladi. Ikkinchi bosqichda, yaratilgan tovar va xizmatlar taqsimlanadi. Keyingi bosqichda, ular ayirboshlanadi va nihoyat oxirgi bosqichda iste'mol qilinadi.

Inson ehtiyojlari ma'lum shaxs yoki guruhga tegishli bo'lishiga ko'ra, shaxsiy ehtiyojlarva ijtimoiy ehtiyojlarkabi turlarga bo'linadi. Shaxsiy ehtiyojlar deb alohida olingan shaxsgagina tegishli bo'lgan shaxsiy gigiyena vositalari, kiyim-kechak, gazeta o'qish kabi ehtiyojlarga aytiladi. Ijtimoiy ehtiyojlar esa kishilarning yonma-yon, hamjihatlikda hayot kechirishi bilan bog'liq, birgalashib qondiriladigan, xususan, maktabda bilim olish, jamoat transportidan foydalanish kabi umumiy ehtiyojlaridan iborat bo'ladi.



### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. So'nggi yillarda mamlakatimizda ro'y berayotgan iqtisodiy o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu o'zgarishlarga bir nechta misollar keltiring.
2. Inson Yer yuzida yashab, to'laqonli hayot kechirishi uchun o'zida nimalarga muhtojlik va ehtiyoj sezadi? 3 daqiqa ichida bu ehtiyojlar ro'yxatini tuzing. Agar vaqt yetarlicha bo'lganda bu ro'yxatni yana qanchagacha davom ettirishingiz mumkin edi?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Tanlov va uning muqobil qiymati.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, iqtisodiy tafakkurni o'stirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O'zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo'lib voyaga yetkazish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq to'garak a'zolarini sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Kommunikativ kompetensiya:**

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

- halollik, to'g'rilik, tejamkorlik kabi sifatlariga ega bo'lish;
- kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda oshirib borish;
- o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil iqtisodiy qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tuta olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

- xaridor, mijoz bilan faoliyat yurita olish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- ta'lim-muassasasi jihozlariga, moddiy va ma'naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo'lish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interfaol.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

**Texnik jihozlar:** proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

**Darsning metodi:** og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.


### III. Yangi mavzu bayoni:

Insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan barcha tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning imkoni yo'q. Chunki iqtisodiy resurslar cheklangan. Shu bois, nafaqat alohida olingan shaxs, balki korxonalar va firmalar, davlat va jamiyat miqyosida ham cheklanganlik muammosiga duch kelinadi. Har qanday firma ham o'z faoliyatini kengaytirish payida bo'lib, ko'proq sifatli mahsulot turlarini ishlab chiqarishga intiladi. Davlat ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga va atrof-muhit muhofazasiga imkoni boricha ko'proq mablag' ajratishni xohlaydi. Lekin afsuski, imkoniyatlar, to'g'rirog'i, ishlab chiqarish resurslari cheklangan. Cheklanganlik muammosi bor ekanki, mavjud imkoniyatlardan birini tanlashga, ya'ni cheklangan resursni nimaga sarflash haqida bir qarorga kelishga to'g'ri keladi. Tanlov deb cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlashga aytiladi.

Muqobil imkoniyatlar— birini tanlaganda qolganlaridan voz kechiladigan imkoniyatlar.


Tanlovning muqobil qiymati— tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan eng katta naflisi.

Shampun miqdori	Krem miqdori
0	600
100	?
?	250
200	300
400	0



Insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy ne'matlar yaratish jarayoni ishlab chiqarish deb yuritiladi. Iqtisodchilar iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni — ishlab chiqaruvchilar, ularni iste'mol qiluvchilarni esa iste'molchilar deb ataydilar. Sut, non, avtomobil, poyabzal, koptok, kitob, mehmonxona yoki sartarosh xizmati kabilar hozirgi zamonda iqtisodiyot sohasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning bir qismi, xolos.

Ishlab chiqaruvchilar, odatda, moddiyva nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga bo'linadi. Moddiy sohada moddiy ko'rinishdagi mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqariladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga sanoatdagi zavod va fabrikalarni, qishloq xo'jaligidagi fermer va dehqon xo'jaliklarini misol qilib keltirish mumkin. Xizmatlarning moddiy ko'rinishdagi mahsulotlardan farqi, ularni moddiy narsalarni jamg'argan kabi omborda jamg'arib bo'lmaydi.



### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Qaysi rasmlardagi ne'matlar tabiat tomonidan, inson ishtirokisiz vujudga kelgan?
2. 2- rasmdagi nonlar tayyor bo'lgunicha qanday bosqichlardan o'tgan?
3. 3 – 6- rasmlardagi narsalarning qaysi birining vujudga kelishida inson ishtiroki ko'proq talab qilinadi deb o'ylaysiz?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi**

**38 listdan iborat iqtisod fanidan 8-sinf konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**